



Volume: 69 / 2026
Economy and Innovation
ISSN: 2545-0573

For more information contact: editor@gospodarkainnowacje.pl

THE IMPORTANCE OF SYNTACTIC ANALYSIS OF PRONOUNS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Rajapova Okila Ziynat qizi

Urganch RANCH universiteti Lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Email: rajapovaoqila@gmail.com

ARTICLE INFO.

Kalit soʻzlar: olmoshlar, sintaktik birlik, sintaktik tahlil, predloglar, grammatik munosabat.

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va oʻzbek tillarida olmoshlarning sintaktik tahlilini amalga oshirish zarurati, sintaktik tahlilning ahamiyati yuzasidan olimlarning fikrlari, ingliz va oʻzbek tillarida olmoshlarning sintaktik farqlari tahlil qilingan va xulosalar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> ©2026 LW

Kirish

Jahon tilshunosligida an'anaviy sintaksisning bahsli masalalarini tizimli oʻrganish, noaniqlik kategoriyasini qiyosiy-funksional tahlil qilish hamda ushbu hodisalarning ontologik mohiyatini aniqlash, ularning tillararo munosabatini oʻrganish masalasi tilshunos olimlarning doimiy eʼtiborida boʻlib kelmoqda. Shuningdek, voqea-hodisalarning pragmatik ifodasini belgilashda bajarilayotgan ish-harakat noaniqligini aks ettiruvchi til birliklarining differentsial sintaktik-semantik belgilarini aniqlash, ularning kommunikativ tilshunoslik, mazmuniy sintaksis sohalaridagi talqini kabi masalalarni qardosh va qardosh boʻlmagan tillar materiallari asosida atroflicha oʻrganish ehtiyoji mavjud[1].

Olmoshlar tilning eng muhim referensial birliklaridan biri boʻlib, ular ismni takrorlamasdan unga ishora qiladi va nutqni ixchamlashtiradi. Ingliz va oʻzbek tillarining sintaktik tuzilmalari tipologik jihatdan farq qilganligi sababli olmoshlarning qoʻllanishida sezilarli grammatik farqlar yuzaga keladi. Ingliz tili analitik til boʻlib, unda soʻz tartibi qatʼiy va predloglar sintaktik munosabatlarni belgilaydi[2]. Oʻzbek tili esa agglutinativ tuzilishga ega boʻlib, kelishik qoʻshimchalari sintaktik vazifalarni belgilaydi. Ushbu maqola olmoshlarning sintaktik vazifalarini qiyosiy tahlil qiladi[3].

Ingliz tilida olmoshlar “Pronouns” deb atalib, ilmiy adabiyotlarda olmoshlarga turli taʼriflar berilgan. Anʼanaviy ingliz tilshunosligida olmoshlar ot yoki otlashgan soʻzlar oʻrnida qoʻllaniluvchi soʻzlar guruhi hisoblanadi. Quirkning fikricha, olmoshlar ot birikmalarining oʻrniga ishlatiladigan va tarkibi cheklangan (closed class) grammatik birliklardir[4]]. Greenbaum olmoshlarni

“Ot yoki ot birikmalarini almashtirishi hamda referenti kontekst orqali aniqlanishi bilan xarakterlanadi” deb tariflaydi [5]. Huddleston va Pullumga koʻra, olmoshlar otlarning kichik toifasi boʻlib, ularning dependenti (aniqlovchisi) kam, referens tizimi esa oʻziga xos [6].

Yuqorida keltirilgan izohlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, ingliz tilida olmoshlar nihoyatda umumlashgan ma'noga ega: ular har qanday obyektlar, mavjudotlar, mavhum tushunchalarni ularni nomlamasdan turib ko'rsatadi, ishora qiladi. Muayyan kontekstda, vaziyatda nutqning yuqori darajada umumlashgan qismi sanalsada, biroq alohida olinganda ma'no ifoda etmaydi. Olmosh - predmetlarni va ularning sifatlarini nomlamasdan ko'rsatuvchi so'z turkumi. Shuning uchun olmosh juda umumlashgan ma'noga ega bo'lib, kontekstdan tashqarida deyarli ma'no anglatmaydi[7].

Olmoshlar tizimi har ikki til — ingliz va o'zbek tillarining grammatik qurilishida muhim o'rin tutadi. Ular so'z turkumlari ichida eng faol sintaktik birlik sifatida ishtirok etib, gapdagi boshqa birliklar bilan murakkab grammatik munosabatlarni shakllantiradi. Shu sababli olmoshlarning sintaktik xususiyatlarini chuqur o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy til o'qitish, tarjimashunoslik, kompyuter lingvistikasi va kontrastiv tahlil yo'nalishlari uchun ham dolzarbdir[8].

Quirk "sintaktik tahlil gap bo'laklari orasidagi grammatik munosabatni ochadi va nutqning to'g'ri talqin qilinishini ta'minlaydi" deb ta'riflaydi. Fries sintaktik tahlil gapni o'qish va tushunishda mexanizm vazifasini bajaradi. Abduazizov "O'zbek tilida sintaktik tahlil nutqning amaliy strukturasi va mazmunini tushunishda markaziy ahamiyatga ega" deb ta'rif bergan[9].

Ingliz va o'zbek tillarida olmoshlarning sintaktik tahlilini o'rganish gap qurilishining umumiy qonuniyatlarini aniqlash, ikki tilning tipologik va kommunikativ xususiyatlarini solishtirish, tarjima jarayonidagi grammatik muammolarni bartaraf etish, shuningdek, zamonaviy kompyuter lingvistikasi uchun zarur bo'lgan asosiy mexanizmlarni ishlab chiqish nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi[10]. Olmoshlarning gapdagi vazifasi, ularning valentligiga ko'ra joylashishi, nisbiylik, referensiya va bog'lanish masalalarini o'rganish har ikki tilda grammatik tizimning chuqur tahliliga yo'l ochadi. Shu bois olmoshlarning sintaktik tahlili bugungi lingvistik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi[11].

Olmoshlar gapda ko'pincha ega, kesimning bir qismi, to'ldiruvchi, aniqlovchi yoki hol vazifalarida keladi. Ingliz tilida, ayniqsa, shaxs olmoshlari ega pozitsiyasida barqaror ishlatiladi (I, he, she), o'zbek tilida esa ega ko'pincha nol ko'rinishda bo'lishi mumkin. Ingliz tilida olmoshlarning katta qismi kelishik shakllari orqali sintaktik rol ni bildiradi[12]. Masalan:

- he / him
- they / them

O'zbek tilida esa sintaktik rol qo'shimchalar orqali belgilanadi. Masalan:

- u / uni / unga / undan kabi.

Bu farqlarning sintaktik tahlili ikki tilning struktur tipologiyasini taqqoslashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi[13].

O'zbek va ingliz tilida olmoshlarning sintaktik farqlari mavjud. Quyidagi jadvalda ushbu farqlar keltirib o'tilgan.

1-jadval. Ingliz va o'zbek tillarida olmoshlarning sintaktik farqlari

Sintaktik jihat	Ingliz tilidagi olmoshlar	O'zbek tilidagi olmoshlar
Kelishik kategoriyasi	To'liq kelishik tizimi yo'q; faqat subyekt (I/you/he) va obyekt (me/you/him).	6 ta kelishik bo'yicha o'zgaradi: men–menga–mendan–menda.

So‘z tartibidagi o‘rni	Qattiq S–V–O tartibi: He gave me the book.	Erkin so‘z tartibi: Menga kitobni berdi.
Egalik olmoshlari	Possessive adjectives (my, your) va possessive pronouns (mine, yours).	Egalik qo‘shimchasi orqali: kitobim, kitobing.
Olmoshlarning moslashuvi	Shaxs va songa moslashadi: he–him, they–them.	Son, kelishik, egalik bilan moslashadi: ular– ularga.
Jins kategoriyasi	Gender farqi bor: he, she.	Gender farqi yo‘q: u.
Refleksiv olmoshlar	myself, yourself, himself.	o‘zim, o‘zingiz, o‘zi.
Ta‘kidlovchi olmoshlar	Reflektiv shaklning ta‘kidlovchi varianti: I myself did it.	Sintaktik urg‘u bilan: O‘zim qilganman.
Belgisizlik olmoshlari	someone, anyone, nobody.	kimdir, hech kim, nimadir.
Fe‘l bilan birikish	Subyekt olmoshi majburiy: I am going.	Tushirilishi mumkin: Boryapman.
Predikativ funksiya	This is me / It is I.	Bu men / menman.
Sifatlovchi funksiya	my book.	kitobim.
Vaqt/joy olmoshlari	here, there, then.	bu yerda, u yerda, shunda.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi olmoshlarning sintaktik tizimini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilning grammatik qurilishi va morfologik imkoniyatlari sezilarli darajada farqlanadi[14]. Ingliz tili analitik til bo‘lgani sababli olmoshlar asosan qat‘iy so‘z tartibi va cheklangan kelishik tizimi orqali o‘z sintaktik vazifalarini bajaradi. O‘zbek tili esa agglutinatив xususiyatga ega bo‘lib, olmoshlar keng kelishik qo‘shimchalari, egalik affikslari va moslashuv tizimi yordamida yanada murakkab va erkin sintaktik munosabatlarni ifodalay oladi[15].

Conclusion

Jins kategoriyasining ingliz tilida mavjudligi, o‘zbek tilida esa yo‘qligi ikki til olmoshlarining semantik va sintaktik xususiyatlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ingliz tilida mustaqil egalik olmoshlarining mavjudligi, ta‘kidlovchi shakllarning maxsus formalarga ega bo‘lishi va subyekt olmoshining gapda majburiy qo‘llanilishi uning sintaktik qurilishini o‘ziga xos tarzda chegaralaydi. O‘zbek

International Journal of Economy and Innovation | Volume 68 | Gospodarka i Innowacje
 tilida esa so‘z tartibining nisbatan erkinligi, shaxs olmoshlarining ko‘pincha tushirilishi, egalik ma’nosining
 qo‘shimchalar orqali ifodalanishi sintaktik tizimni ixcham va moslashuvchan qiladi.

Demak, mazkur farqlar nafaqat grammatik tizimlarning tuzilishidan kelib chiqadi, balki har bir tilning
 milliy tafakkur tizimi, lingvistik taraqqiyoti va morfosintaktik tabiatining o‘ziga xosligini ham ko‘rsatib
 beradi. Olmoshlarning sintaktik tahlili ikki tilning umumiy va farqli jihatlarini ochib berish, tarjima
 jarayonini yengillashtirish, til o‘rganuvchilarning qiyosiy tilshunoslik ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda
 nazariy grammatikani chuqurroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

References

1. R. Quirk, S. Greenbaum, G. Leech, and J. Svartvik, *A Comprehensive Grammar of the English Language*. London, UK: Longman, 1985.
2. S. Greenbaum, *Oxford English Grammar*. Oxford, UK: Oxford University Press, 1996.
3. R. Huddleston and G. K. Pullum, *The Cambridge Grammar of the English Language*. Cambridge, UK: Cambridge University Press, 2002.
4. C. C. Fries, *The Structure of English*. New York, NY, USA: Harcourt, Brace and Company, 1952.
5. A. Abduazizov, *Syntax of the Uzbek Language*. Tashkent, Uzbekistan: O‘qituvchi, 1996.
6. R. Asadov and S. Mardiyeva, “Syntactic valency of predicative components,” in *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 2024.
7. D. Biber, S. Johansson, G. Leech, S. Conrad, and E. Finegan, *Longman Grammar of Spoken and Written English*. London, UK: Longman, 1999.
8. A. Radford, *English Syntax: An Introduction*. Cambridge, UK: Cambridge University Press, 2004.
9. Sh. Safarov, *Cognitive Linguistics*. Tashkent, Uzbekistan: Fan, 2006.
10. B. Yo‘ldoshev, *Modern Uzbek Literary Language Syntax*. Tashkent, Uzbekistan: O‘qituvchi, 2008.
11. A. Nurmonov, *Theoretical Grammar of the Uzbek Language*. Tashkent, Uzbekistan: Fan, 2010.
12. M. Mahmudov, *Issues of Uzbek Language Syntax and Text Linguistics*. Tashkent, Uzbekistan: Akademnashr, 2012.
13. Sh. Rahmatullayev, *Modern Uzbek Language (Syntax)*. Tashkent, Uzbekistan: Universitet, 2005.
14. N. Mahmudov and D. Xudoyberganova, *Fundamentals of Linguistics*. Tashkent, Uzbekistan: Fan, 2013.
15. A. Sobirov, *Linguistic Theory and Modern Approaches*. Tashkent, Uzbekistan: Tafakkur, 2018.